



HOZIRGI O‘ZBEK NASRIDA OTA OBRAZI TALQINI

(Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani misolida)

Annotation:

O‘zbek nasrida obraz yaratish va muallif mahorati, uslubi har doim muhim masala bo‘lib kelgan. Bu borada qator izlanishlar olib borilgan. Mazkur maqolada ham hozirgi o‘zbek nasrida ota obrazi talqini Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani misolida ko‘rib chiqiladi hamda atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, “Ota” romani misolida nasrimiz rivojida munosib o‘ringa ega boshqa badiiy asarlardagi ota obrazi qiyosan tahlil qilinadi.

Key words:

Uslub, badiiyat, obraz, ruhiyat, ota, Po‘lat, Yog‘du, Sevinch, or-nomus, farzand, g‘urur.

Information about the authors:

Nodira XOLMO‘MINOVA

*TerDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: S.TULIBOYEV,

*TerDU, O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrası o‘qituvchisi*

Hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz va yoshlarimiz dunyoqarashi tubdan o‘zgarmoqda. Ularning aksariyati yuksak ma‘naviyatli, yengilmas, kelajakka ishonch bilan qarovchi, doim olg‘a intiluvchi shaxslardir. Mana shunday shaxs kamolotida esa tarbiyaning o‘rni nihoyatda yuksak. Asosiy tarbiyachi esa ota-onalarimizdir. Ular bizning har qadamimizda ko‘makdosh va maslakdoshdirlar. Hammamiz yaxshi tushunamiz adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yozilgan bir qancha asarlar dunyoga keldi. Ularga ota obrazi bosh mavzularda yoritilgan. Ishonamizki, yozuvchi va dramaturglarimiz ham hayotimizda yashayotgan otalarning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyati, zamondoshlarimizning ma‘naviy, ruhiy dunyosi haqida kelajak avlodlarga to‘liq yoritib beradigan asarlar yozadi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o‘rin egallab borayotgan O‘zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo‘lga kiritgan ulkan marralarga, el-yurtimizning ma‘naviy ildizlari, urf-odat va an‘analariga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek xarakteri, o‘zbek tabiatiga, butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Shu jumladan, otalarimizga ham. Ularning farzand tarbiyasidagi, kamolotidagi o‘rni, oiladagi ahamiyati ham shular jumlasiga kiradi.

Hozirgi o‘zbek nasrida ota obraziga kelsak, hech shubhasiz ko‘z o‘ngimizda taniqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani gavdalansa, ona deganimizda esa O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi ko‘z oldimizga keladi. “Dunyoning ishlari” qissasi dunyodagi barcha



onalarga bag'ishlansa, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida barcha otalarga bag'ishlanadi deb yozib qo'yilgan¹.

Darhaqiqat o'zbek nasrida ham ota obrazini yaratgan ijodkorlar talaygina. Jumladan Odil Yoqubovning "Ota izidan", Omon Muxtorning "Oppoq qor", Botir Kamolning "Ota mehri", Shukur Xolmirqayevning "O'zbek bobo" kabi bir qator asarlarida ota obrazi keng yoritilgan bo'lsa-da, Ulug'bek Hamdamning "Ota"sidagi Po'lat obrazichalik nasrimizda o'ziga xos yukka ega emasdek, go'yo. Bundan tashqari jahon adabiyotida ham ota siymosi alohida o'rin tutadi. Jahon adabiyotida bu kabi asarlarga misol qilib, Frans Kafkaning "Ota hukmi", Turgenevning "Otalari va o'g'illar", Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota", Onore de Balzakning "Gorio ota" kabi asarlarini keltirishimiz mumkin.

O'zbek nasrida keng muhokamaga sabab bo'lgan, shuningdek so'nggi yillarda nasrimizda yaratilgan ota obrazining eng ko'zga ko'ringan namunasi sifatida hech ikkilanmasdan Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Po'lat obrazini olsak bo'ladi. Bu romanda haqiqiy o'zbek otasi tasvirlangan. Romanni o'qir ekansiz, asardagi voqealar birma bir ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Asar folbinlarga ixlos qo'ygan, ularga ishonadigan, Oychechak opaning o'n besh yildan beri tirnoqqa zor o'g'li Po'lat va kelini Yog'duning farzandsizligi bilan boshlanadi. O'n besh yil deganda ular xonadonida quvonchli voqea yuz beradi, ya'ni ular farzandli bo'lishadi. Ularning quvonchlarini chek chegarasi yo'q edi. Shu quvonch ortidan qizining ismini Sevinch deb qo'yishadi. Endi ularning quvonchli kunlari boshlanadi, ammo hayot hamisha bir tekis ketavermaydi. Unda turli to'siqlar, qoqilishlar ham bo'lib turadi. Shunday quvonchli kunlarning birida Sevinchning yuzi kuyib qoladi va shu holicha qolib ketadi. Asardagi qahramonlar ismiga qarasak ham nihoyatda sinchkovlik bilan tanlangani va har bir ismda ramziylik borligini ko'ramiz. Po'lat-sabr timsoli, Yog'du-nur, Sevinch-quvonch, mehr-muhabbat, Erboy esa egrilik, yomonlik ramzi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Asardagi Po'lat ota obrazi g'ururli, oriyatli, or-nomusli, vatani, oilasi uchun jon fido qilishga tayyor haqiqiy o'zbek o'g'loni ekanligini ko'rishimiz mumkin. Urush boshlanganda u endigina yigirma ikki yoshda edi. Yosh bo'lishiga, onasining urushga borma deyishiga qaramay u harbiy qismga borib, uni ham urushga olib ketishini so'rashining o'zi ham Po'latning haqiqiy o'zbek o'g'loni ekanligini bildiradi. Po'lat ota o'zi o't o'chiruvchi bo'lishiga qaramay, qizi Sevinchga yordam berolmaydi va bundan qattiq iztirob chekadi. Ota uchun farzand bir tomon bo'lsa, or-nomus bir tomondir. Ota farzandini qanchalik yaxshin ko'rsa ham or-nomus masalasi birinchi o'rinda turadi. Po'lat ota Sevinchni tug'ruqxonada nikohsiz farzandini dunyoga keltirganini eshitganida borib, hech ikkilanmay o'ldirganini ko'rishimiz, hech shubhasiz yuqorida keltirilgan fikrimizning isboti desak bo'ladi.

Asardagi Erboy obrazini ramziy ma'noda hayot qiyinchiliklari, yo'limizda uchraydigan to'siqlar desak adashmagan bo'lamiz. Negaki bu ko'ngilsiz voqealarning bosh sababchisi Erboy hisoblanadi.

Farzand bu insonga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk nemat. Ortidan farzand qoldiribgina kishi dunyoda men ham borman deya oladi. O'z farzandi qotiliga aylangan Po'lat ota qamoqqa kirdi, Yog'du va jigar go'shasi Sevinch esa qabristonga. Po'lat ota bir lahza ham qilgan ishidan afsuslanmadi. Roman oxirida Po'lat ota Imom domlaning gapidan va qizi

¹ "Отага таъзим". У.Норматов. Улуғбек Ҳамдамнинг "Ота" романига сўзбоши. Тошкент, "Янги аср авлоди"-2020-й., 4-б.



Sevinchni otasi yuziga oyoq qo'ymagani, aksincha Fakil bilan nikohi borligini eshitgandan so'ng o'zgaradi. Nabirasi Yodgorni o'z tarbiyasiga oladi.

Asar so'nggida barcha haqiqatdan xabar topgan otaning holati, xuddi otaning umr so'ngidagi iqronomasi edi. "Meni kechir, bilib bilmay, tushunib tushunmay qilgan isyonlarim-u gunohlarimni avfu et, Allohim!"²

O'zbek nasrida ham hozirgi kungacha ota obrazi uchraydigan asarlar talaygina. Masalan Odil Yoqubovning „Ota izidan“ asarini olaylik. Yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zidan farzand qoldiribgina inson dunyoda men ham borman deya oladi. Bu asar qahramoni Shukurjon ham bosmachilar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan otasiga munosib farzand bo'lish uchun harakat qiladi. Vaholanki shu o'rinda tarbiyaning ham ahamiyati katta, albatta. Buvisi Shukurjonni ota onasiga mehr tuyg'usi bilan voyaga yetkazadi. Voyaga yetgan Shukurjon ham endi otasi ruhini shod qilish, uning pok nomini oqlashni o'z farzandlik burchi deb hisoblaydi. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda „Qush uyasida ko'rganini qiladi“. Oilada muhit qanday bo'lsa farzand ham shu muhit ta'sirida kamol topadi. Yana boshqa bir asarga qaraydigan bo'lsak, Behbudiyning „Padarkush“ dramasi. O'zi ilmsizligi yetmaganday farzandini ham ilmsiz qilgan otaning ahvoli tasvirlangan. Agar ota boshqa yo'lni tutganda ziyolining, domlaning gapiga kirganda balki hammasi boshqacha bo'lar edi. Bundan ko'rinib turibdiki, farzandiga to'g'ri tarbiya berish ham ota oldidagi farzdir.

Po'lat ota ham bu ishni uddalay olgan insondir. U farzandini juda qattiq yaxshi ko'radi va ilmi' tarbiyali qilib ulg'aytiradi. Ammo bo'iib o'tgan mudhish voqea, vaziyatni to'la- to'kis anglamay qilingan ish natijasida ota o'z farzandining qotiliga aylanadi. Otalar hech qachon farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Said Ahmadning „Ufq“ romanida ham bunga duch kelishimiz mumkin. Asar qahramoni Tursunboy urushdan qochib, bekinib yurishi, ota onasini barchani oldida uyatga qo'ygan bo'lsa ham, onasi unga har kuni ovqat olib borib berishi va onasi vafot etganini ko'rganda endi onasini qaytib ko'rolmasligi, farzandlik his tuyg'ulari emas, balki bir hayvonga xos bo'lgan o'y fikr, endi menga kim ovqat olib keladi degan o'y xayol tug'iladi. U otasi bilan ko'rishgan parchaga e'tibor bersak, otasi unga o'q uzadi, lekin u Tursonboyga tegmay o'tadi. O'sha vaziyatda ota xudoga shukr tegmadi deb pichirlaydi. Mana shu holatda ham o'zbek otasiga xos bo'lgan hisni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish kerakki, Po'lat ota dunyodagi barcha mehribon, or-nomusli, shuning bilan birga isyonkor, g'ururli bo'lish barobarida, Allohning irodasi oldida taslim inson va butun umrini faqat farzandiga, uning baxt-u saodatiga bag'ishlagan otalar ramzidir.

Yaxshiyamki, bu dunyoda bizni ardoqlovchi, barcha aytganimizni muhayyo qiladigan, bizning tog'imiz, qalqonimiz otalarimiz bor. Ularning e'tiborisiz, qo'llab quvvatlashlarisiz biz ulkan marrlarni zabt etmagan bo'lar edik. Shunday ekan ularga munosib farzand bo'lish, ularning ishonchini oqlash bizning farzandlik burchimizdir. Dunyodagi hech bir otaga bunday qismatni, o'z farzandi qotiliga aylanishini ravo ko'rmaymiz, albatta. Ular bor ekan hayot bardavom, shunday ekan Alloh hamisha otalarni o'z panohida asrasin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Dilmurod Quronov. "Adabiyotshunoslikka kirish", Toshkent; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.*

² "Ota". Роман. У.Хамдамнинг. Тошкент, "Янги аср авлоди"-2020-й.,206-б.



2. Hotam Umurov. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. *Ulug'bek Hamdam "Ota" roman*. Toshkent: Yangi asr adabiyoti, 2020.
4. *O'zbek xalq maqollari*. T.Mirzayev va boshq. Toshkent- «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005
5. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати*. 1-жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2006-й.
6. Султонова С. Х., Насириддинова М. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО (НА ПРИМЕРЕ ОНЛАЙН-ДОСКИ) //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1346-1352.
7. Султонова С. Х. КОММУНИКАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИИ РКИ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 3.
8. Султонова С. Х. УЧЕБНО-РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЗБЕКСКИХ УЧАЩИХСЯ ЭЛЕМЕНТАРНОГО И БАЗОВОГО УРОВНЕЙ //Русское слово в международном образовательном пространстве: история и современность. – 2021. – С. 437.
9. Носирова З., Султонова С. Х. ПРИВЕТСТВИЕ И ПРОЩАНИЕ В РУССКОМ И КОРЕЙСКОМ РЕЧЕВОМ ЭТИКЕТЕ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 4-12.